

XURSHID DO'STMUHAMMADNING "BOZOR" ROMANIDA QO'LLANGAN FRAZEOLOGIZMLAR LINGVOPOETIKASI

Sevinch Ostanova

Navoiy davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17259570>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanida qo'llanilgan frazemalarning til xususiyatlari va ularning lingvopoetikasi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: frazema, "Bozor", lingvopoetika, obraz.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвистические особенности фразеологических единиц, использованных в романе Хуршида Достмухаммада «Бозор», и их лингвопоэтика.

Ключевые слова: фраза, «Бозор», лингвопоэтика, образ.

Abstract. This article examines the linguistic characteristics of phrases used in Khurshid Dostmuhammad's novel "Bazar" and their linguopoetics.

Keywords: phraseology, "Bozor", linguopoetics, image.

Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismi hisoblanadi. Frazeologizmlar nutqimizni yanada serjilo va ta'sirchan qilishga xizmat qiladi, shuningdek, badiiy asarning emitsional-ekspressivligini ta'minlaydigan asosiy vositalardan biri. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad "Bozor" asarida ham qahramonlar shaxsi va ruhiyatini ochib berish maqsadida turg'un birikmalardan unumli foydalangan. Jumladan, quyidagi misollarga e'tiboringizni qaratamiz:

Naynov zakunchining vafoti haqida Fozilbek shunday o'ylaydi: "So'kadimi-alqaydimi, ishqilib, ko'pchilikning koriga yarab yurgan shunday odam to'satdan qaytish qildi..." Yozuvchi "ko'z yumdi", "dunyodan o'tdi", "omonatini topshirdi" kabi iboralar o'rniga ularning sinonimi shevaga xos "qaytish qildi" frazemasini qo'llagan. Mazkur parchaning o'zida so'zlashuv uslubiga xos leksemalar ko'p qo'llanishi bilan o'ziga xoslikni ifodalash barobarida mazkur frazema semantik jihatdan shevaga / so'zlashuv uslubi elementlarida ta'sirchanlik kuchli bo'ladi.

So'z va birikmalarini mavjud frazeologik birlikdan oldin, keyin yoki frazema komponentlari o'rtasida qo'llash bilan o'sha frazeologik birliklarning tarkibi ham kengayadi.

Frazeologik birlik tarkibini kengaytirishda nafaqat so'z, balki so'z birikmalari ham faol ishtirok etadi. Bunday hodisaga "Bozor" romanidan ham misol keltirish mumkin: *Oqsoqol Fozilbekning tagdor savolidan gezardi, lekin u ota bo'lib kenjasiga sira zahrini oshkora sochgan emas, shundan bu safar ham o'zini zo'rlab, gapning maromini boshqa yoqqa burdi* Ko'rib turganimizdek, "gapni burmoq" frazemasida adib tilida "gapning maromini boshqa yoqqa burdi" tarzida qo'llangan va iboraning ma'no mundarijasida "epchillik", "ustomonlik", "donolik" semalari qo'shilgan.

Asar qahramoni Diyorbek otasi bilan suhbat chog'ida aytmoqchi bo'lgan so'zlarini o'ylab ham ko'rmasdan behosdan gapirib yuboradi va otasining ko'nglini og'ritib qo'yadi:

Diyorbek tili besuyaklik qilib qo'yganini shundagina fahmladi. "Bozorda insof qolmadi" degan iddao "Sizda insof qolmadi" degan mulohazaga teng ekanligini o'ylab ko'rmagan edi...

Mazkur parchada qo'llanilgan "tili besuyaklik qildi" iborasi o'zi sezmaganda holda o'ylamay aytib qo'ygan gapidan pushaymonlik hissining ta'sirchanligini kuchaytirgan.

Frazemalar, asosan, obrazlilik asosida ma'no bo'rttirishga xizmat qiladi. Ba'zan esa bu bo'rttirish tilimizga xos ma'no kuchaytiruvchi belgilar asosida yanada orttiriladi.

Masalan, "ko'ngliga og'ir botmoq" iborasi nutqimizda "xafa bo'lmoq, ranjimoq" ma'nosini kuchaytirish uchun ishlatiladi. Xurshid Do'stmuhammad bu ma'noni yanada ta'sirchan ifodalash uchun iboraga "tegirmon toshidek" o'xshatishini qo'shadi: *Faqat otasining ta'na-iddao aralash xo'mrayishi uning ko'ngliga tegirmon toshidek og'ir botdi, keyinchalik o'sha ulg'aygani sayin bu tosh ko'nglining tubiga chuqurroq botaverdi...*

Fozilbek uchun esa pul-boylik qanchalik begona bo'lsa, uning evaziga saqlanadigan o'z joni ham yetti yot begonadek edi... To'rabek egarchining o'rtanchasi Baxtish ezma uning **o'ylarini kunpayakun qilib tashladi**. To'rabek egarchining o'rtancha o'g'li Baxtish ezma Fozilbekning nafs haqidagi, pul insonlarni qanchalik izdan chiqarib yuborayotgani to'g'risidagi o'y-xayollarini buzib, fikrlarini chalg'itib yuboradi va bu hodisani adib "xayollarini kunpayakun qilib tashladi" iborasi bilan tasvirlaydi. (Bilamizki, kunpayakun so'zi "buzish, yo'q qilish" ma'nolarini anglatadi)

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, frazemalardan matn tarkibida foydalanish tilning badiiy tasviriy imkoniyatlarini boyitadi, nutqning emotsionalligi va ekspressivligini kuchaytiradi, obrazlilikning yorqin ifodalanishini ta'minlaydi. Shu jumladan, yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad "Bozor" romanida ham barqaror birikmalardan unumli va o'z o'rnida foydalangan. Natijada asar voqealarini qahramon hissiyotlari bilan uyg'unlashtirgan va matnning ifodadorligini oshirishga xizmat qilgan.